

201
A
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:11 (67176)
2018-yil 12-mart



Tong yulduzi



www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

E'ZOZLAR, ARDOQLAR UCHUN TASHAKKUR



Zulfiyaxonim ushbu go'zal satrlarni bugun yuksak mukofotga sazovor bo'lgan baxtiyor qizlar nomidan aytgandek, go'yo. Bu yil ham yurtimizda xotin-qizlarga alohida e'zoz va e'tibor ko'rsatildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan bir guruh qizlar a'lo xulqi, noyob iste'dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

E'tiborli jihati, bu yil ularning soni 28 nafarga yetdi. Demak, yildan yilga oqila-yu iqtidorli qizlarning soni ortib, safi kengayib bormoqda. Ular esa bunday yuksak rag'batdan mamnun va baxtiyor ekanliklari, shubhasiz. Baxtiyor qizlarga qarang, havas qiling, ulardek bo'lishga intiling.

USHBU SONDA

**70 FOIZ BILIM
5 YOSHGACHA MAKTABDAGI
SINGADI**

Endi yurtimizda
maktabgacha ta'lim sohasida
yangi tizim yaratiladi

2-bet

MUAMMO

yoxud o'quvchi nega dars
qoldiradi?

3-bet

**TO'G'RI-
SO'ZNING
QADRI
BALAND**

4-bet

**Suv bilan ekin o'sar,
Tarbiya bilan – odam.**



ZIYOGA INTILIB...

O'qimishli, badiiy jihatdan yetuk asarlar bolaning doimiy hamkori bo'lmog'i darkor.

Qo'qon shahar 12-Mehribonlik uyida tez-tez o'tkazib turiladigan kitobxonlik tadbirlari, ko'rik-tanlovlar tarbiyalanuvchilarning salohiyatini oshirishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ayniqsa, «Men sevgan kitob», «Eng kitobxon guruh», «Eng kitobxon tarbiyalanuvchi» tadbirlari hamda «Eng yaxshi yosh kitobxon», «Kitob – eng yaxshi sovg'a» kabi sovrinli o'yin va viktorinalar barchaga manzur bo'lmoqda.

Qiziqarli tashkillashtirilgan tanlovlarda 7-guruh tarbiyalanuvchisi Zilola Suyarqulova «Eng faol kitobxon», 4-guruhdan Ro'zixon Hoshimova «Eng yosh kitobxon», 5-guruh tarbiyalanuvchisi Diyor Isaqov «Eng yaxshi kitobxon» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Shuningdek, Mehribonlik uyida to'garaklar faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qo'qon davlat pedagogika instituti talabalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Iste'dod» klubining «Ingliz tili» va «Rus tili» to'garaklariga tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari ortmoqda.

– O'quvchilar qanchalar ilmga chanchoq, intiluvchan bo'lsa-da, ularning e'tiborini uzoq vaqt ushlab turish qiyin. Bolalar bir xillikdan tez zerikadi, – deydi institutning 4-bosqich talabasi M. Sultonov. – Bunday vaziyatda interfaol usullarini qo'llash yaxshi samara beradi. Biz talabalar to'garaklarda «Muzyorar», «Aqliy hujum», «Bumerang» kabi metodlardan unumli foydalanaymiz. Albatta, ularni mavzuga moslab qo'llaymiz.

Bo'lajak ustoz tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda to'garakda foydalanish uchun turli ko'rgazmali vositalar yasashadi. Shu bilan birga, bolalarni ingliz va rus tilida muloqot qilishga o'rgatish barobarida og'zaki nutqini rivojlantirib boradi.

O'z muxbirimiz



70 FOIZ BILIM 5 YOSHGACHA SINGADI

Endi yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasida yangi tizim yaratiladi

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, MTMlarga qatnaydigan bola bilan qatnamaydigan kichikintoyning dunyoqarashi, nutqi, fikrlashi, bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiyasida osmon bilan yerchalik farq bor ekan. Yana bir gap. Inson umri davomidagi barcha ma'lumotlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida olishi bugun fanga ma'lum.

Shu bois, dunyoni aql-u zakovati bilan lol qoldirayotgan yaponlar ushbu yoshgacha bo'lgan oraliqda farzand tarbiyasiga o'ta mas'uliyat bilan yondashadi. Buning natijasida esa hozirda kunchiqar yurt mamlakati dunyoning eng rivojlangan davlatlari safida e'tirof etiladi.

Afsuski, keyingi yillarda yurtimizda ta'limning ilk bo'g'ini – maktabgacha ta'lim tizimiga yetarli darajada e'tibor berilmasligi natijasida sohadagi ishlar o'lda-jo'lda qolib ketdi. Natijada, aksariyat bolajonlar ham ma'nan, ham jismonan o'sib-ulg'ayadigan muhim pallada bog'chalarga qamrab olinmadi. E'tibor bering, mustaqillikning ilk yillarida yurtimiz aholisi 22 million nafar bo'lib, o'sha paytda MTMlarga 1,5 million bolakay qatnagan. Bugun esa mamlakatimiz aholisi 32 million-dan ortiq bo'lib, afsuski, atigi 500 ming nafar bola maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olingan. Ayniqsa, qishloq joylaridagi holat qoniqarli emas. Bundan ko'rinish



sifatini yaxshilash, qarovsiz binolarni maktabgacha ta'lim muassasalariga aylantirish, xususiy sektorni rivojlantirish, soha xodimlarining malakasini oshirish borasida qator loyihalarni hayotga izchil tatbiq etmoqda.

– MTMlarda doim oziq-ovqat sifati bosh masala bo'lib kelgan. Endilikda hududlardagi bog'chalar fermerlarga birlashtiriladi. Bu degani, poliz yoki go'sht mahsulotlari kabi oziq-ovqat yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarining hisob raqamiga tarbiyalanuvchilar uchun ota-onalar tomonidan to'lanadigan

badal pulining ma'lum qismi o'tkaziladi va ular o'zlariga birlashtirilgan MTMlarni kerakli mahsulotlar bilan ta'minlaydi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining oziq-ovqat sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Abdurashid Sodiqov. – Kelgusida yurtimizdagi barcha bog'chalarda suzish havzalari quriladi.

Shuningdek, bu yil



turibdiki, bugun ushbu sohaga jiddiy e'tibor qaratish, bu borada bajarishimiz lozim bo'lgan ishlar juda-juda ko'p.

Shu bois, Prezidentimiz boshchiligidagi soha rivojiga jiddiy e'tibor qaratilib, farzandlarimizning bilim olishi, o'z iqtidor va salohiyatini to'la namoyon etishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yurtboshimizning 2017-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvinin tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur sa'y-harakatlar tufayli yangi – Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. E'tiborlisi, o'tgan qisqa vaqt ichida vazirlik xodimlari joylardagi MTMlarning moddiy-texnik bazasini o'rganish, muassasalardagi ovqatlanish

Prezidentimiz alohida e'tibor qaratgan masala – xususiy bog'chalar tashkil etish bo'yicha ham bir qancha ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, joriy yil 3 mingdan ziyod nodavlat bolalar bog'chasini tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 1 ming 200 tasi yangi quriladigan binoda, 1 ming 360 tasi esa mavjud binolarda hamda 470 tasi uy-bog'chasi sifatida ish boshlaydi.

Qolaversa, MTM xodimlarini moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning bilim va malakasini oshirish, ijtimoiy himoya qilish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimi sifatini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish, farzandlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol inson bo'lib kamolga yetishiga xizmat qiladi.

Sa'dullo TURSINOV

Aziz o'quvchilar! Matematika fani jumboqli masala-yu misollari bilan doimo sizni zehni bo'lishga chorlaydi. Undagi har bir mavzu yoki amal keyingisiga bog'liq bo'lgani uchun ham bu fanni chuqur o'rganmoq kerak.



Kuni kecha maktabimizda «Matematika fani oyligi» doirasida 8–9-sinf o'quvchilari o'rtasida qiziqarli bel-lashuv o'tkazildi. Unda 8-«G» sinf o'quvchilari – Ismoil Abrorxo'jayev, Hojiakbar Ergashev, Ravshana Abdurazzoqova va Adolat Tojiboyevlar barcha shartlarni a'lo darajada bajardilar.

SHARTLAR A'LO BAJARILDI

O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoq va tirishqoqligini oshirish maqsadida maktabimizda bir qator to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Maktab rahbari Muxtabar Yaminova va o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Habiba Temirbekova o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashdan sira charchamaydi. Shu bois, bilim dargohimizda tahsil olgan sobiq o'quvchilarimizning aksariyati bugun oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirishmoqda.

Dilfuza SAID XO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
197-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

TINCHLIK BO'LSIN DUNYODA

O'zimizning Navro'zni, Navro'zi dilafro'zni, Shodon kutib olamiz, Katta bayram qilamiz. Eh-he hey!..

Go'zal qishlog'imizda bodom gul-lab, bulbullar yurt madhini kuylay boshladi. Yurtimiz bo'ylab Nav-ro'z shukhi kezayotgan shu kunlar-da maktabimizda ham katta bay-ram bo'ldi.

1-«B» va 3-«A» sinf o'quvchilari ishtirokida-gi tadbir-da «Bahor valsi» yang-radi. O'g'il bolalar

O'ylaymizki, maktabimiz o'quvchilari sovg'a qilingan kitoblarni qunt bilan o'qib, o'z bilim-larini mustahkamlaydilar. Bayram quvonchi dillardan tillarga ko'chadi. O'quvchilar zavq bilan qo'shiq kuylaydi:



Maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari Diloromxon Iminjonova, Fazilatxon Yo'ldosheva va Shahnoza Mamadaliyevlar boshchiligida 2-«A», «B», «V» sinflarida o'tkazilgan bahor bayrami ham ko'tarinki ruhda o'tdi.

Tinchlik bo'lsin dunyoda, Olam gullarga to'lsin! Biz kabi bolajonlar, Bog'larda o'ynab kulsin!

Gavharoy ABDULLAYEVA,
Tursunoy MAMAJONOVA,
Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabi o'qituvchilari

Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlantirmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim.
Abdulla AVLONIY

MAKTABDAGI MUAMMO

yoxud o'quvchi nega dars qoldiradi?



Avtobusda ketayotib, ikki ayolning suhbatini bexosdan eshitib qoldim. Ulardan biri o'g'lim har kuni ertalab choyini ichib bo'lgach, ozoda kiyinib, sumkasini olib maktabga ketardi. Ancha bo'libdi, darslarga kirmay, maktab atrofida vaqtini bekorga o'tkazib yurgan ekan. Men kun bo'yi ishdaman, o'qituvchisi o'g'lingiz darslarga kelmayapti, demaguncha bilmabman. Shuning uchun maktabga borib, ustozidan darsga bormaganligi sababini bilmoqchiman, dedi xavotirlanib...

Darhaqiqat, o'quvchilarni darsga qiziqtirish, mashg'ulotlardagi ishtirokini doimiy ta'minlash masalasi barcha ustozlardan yuqoridagi voqea kabi o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi. Zero, yuqori davomat ta'lim samaradorligining bosh omilidir.

Keling, shu o'rinda muammoning sabab va yechimlarini izlashga urinib ko'ramiz.

Nargiza YOQUBOVA, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 10-«V» sinf rahbari:

– Men yuqori sinflarda matematika fanidan saboq berraman. Ba'zan quyi sinf o'quvchilari karra jadvalini yod olmagani yoki oddiy matematik amallarni bajara olmasliklariga guvoh bo'laman. O'sha paytda bolaning behuda o'tkazgan vaqtiga achinaman. O'z vaqtida boshlang'ich sinf ustozlari har bir bolaga individual yondashmagan-

ligidan afsuslanaman. Sinfda turli fe'l-atvorli, o'zlashtirish darajasi har xil o'quvchilar bo'lgani kabi ularning darsga kelmasligining ham sabablari juda ko'p. Masalan, ba'zi o'quvchilardan «Meni darsda yo'qligim o'qituvchini zarracha qiziqtirmaydi. Shu sababli, darsga kirmayman. Baribir bahosini qo'yib beradi», «Bu fan o'qituvchisini yomon ko'raman, o'ta qattiqqo'l. Faqat a'lochi o'quvchilarni yaxshi ko'radi» kabi sabablarni eshitamiz. Nazarimda, fidoyi, o'z fanini puxta bilgan o'qituvchigina o'quvchilarga ijobiy ta'sir eta oladi. O'quvchilarni o'zi kabi aniq maqsadlar sari yo'naltiradi. 45 daqiqani behuda sarflamay, o'quvchilarning ilm o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini orttiradi. Shu bois, barcha bu kabi ustozlarning darsini aslo qoldirishni istamaydi. Qolaversa, muallim o'quvchining ko'ngliga yo'l topa olishi muhim. Zero, tajribali ustoz o'quvchini ruhlantiradi.

Sarvar SHUKURJONOV, poytaxtimizdagi 249-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi:

–Yaqinda botanika fanidan ustozim daftarimni tekshirib, uni risoladagidek tutmayotganim uchun menga tanbeh berdi. Shundan keyin yomon baho olishdan qo'rqib, darsga bormay qo'ydim. Uyimga kelgan sinf yetakchisi tezda sinf rahbarimizga uchrashishim kerakligini aytdi. Maktabga kelib, ustozlarimdan uzr so'radim, mavzulami o'zlashtirishga astoydil harakat qilishimni aytdim. Ular bu ishmdan xursand bo'ldi. Hozirda birorta fanni sababsiz qoldirmayman.

Nodira NAZAROVA

Aziz o'quvchilar! O'qish bu mehnat, mashaqqat degani. Shunday ekan, bilim olishdan aslo to'xtamaylik. Ilm olishdek qimmatli vaqtigingizni behudaga sarflamang.

O'SMIRLIK BEKATI

SIZDAGI RUHIY OLAM

undagi sirli kechinmalarning yechimi bor

Aziz bolajonlar! Kattalar sizga nasihat qilganlarida yoki suyub maqtanlarida, boshingizni silab qo'yishlarida hikmat bor ekan. Bu vaqtda inson miyasida yangi hujayralar paydo bo'ladi.

Siz ba'zan qiziqib o'ynaydigan elektron o'yinlar esa aqlni, ziyalikni pasaytirishi aniqlangan. Chunki bu vaqtda ekran va o'yindagi voqelikka haddan ziyod e'tibor qaratish miya hujayralarining barvaqt halok bo'lishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida yosh ulg'aygani sari inson xotirasi pasayib ketadi.

Bizning kundalik hayotimiz, ishlari-mizning rivoji-yu salomatligimiz bevosita ruhiyatimiz bilan bog'liqligi haqida eshitgansiz-a?! Shuning uchun hech qachon kayfiyatigizni arzimagan voqealar-u tasodiflar tufayli tushirmang!

Ma'lumotlarga ko'ra, bolani masxaralash, qilgan ishlarini taqdirlamaslik natijasida undagi motivatsiya (ijtimoiy moslashuv) pasayar ekan. Ammo, aziz o'quvchim, yuqoridagi holatga tushganingizda o'zingizga-o'zingiz «Men bilim va qobiliyatim bilan hali hammaning e'tiborini qozonaman. Ustimdan kullishlariga chek qo'yaman», deya dadil odimlang!

Agar kattalar siz bilan suhbatlashishga vaqt ajratmay so'zlaringizga e'tibor berishmasa, zinhor tushkunlikka tushmang! Sabr bilan mavridini topib, yana qayta murojaat qiling.

Boshlang'ich sinfda yozuvingiz haddan tashqari katta yoki kichikligi uchun tanbeh eshitgan vaqtlaringiz bo'ladi. Shunda bilingki, katta yozuv insonning o'ziga ishonchi baland va erkin ekanligidan dalolat beradi. Demak, bu unchalik muammo yoki xato emas. Faqat asta-sekin o'rtacha va chiroyli yozishga harakat qiling.

Aziz bolajonlar! Sizning nozikkina, ammo beg'ubor va go'zal ichki dunyoingizda yana ne kechinmalar bor?! Sizni nimalar o'ylantirmoqda? Bu haqda, albatta, yozib yuboring!

Sanobar QULMIRZAYEVA tayyorladi

KITOBIM - OFTOBIM

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 219-umumta'lim maktabida «Kitobim – oftobim» haftaligi doirasida shoira Umida Abduazimova bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Dastlab 4-«A» sinf o'quvchilari shoira she'rilaridan ifodali o'qishdi. 3-«A», «B» sinf o'quvchilari esa kitob haqida she'rilar aytib, raqsga tushishdi. Shundan so'ng, navbat Umida opaga berildi.

Shoira o'z faoliyati, ijodi haqida to'xtalib, o'quvchilarga hayotidagi qiziq va ta'sirchan voqealarni so'zlab berdi. O'zi ijodidagi she'rilaridan namunalari o'qidi.

Tadbir so'ngida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroficha javob oldi.

Kechani tashkillashtirishda ustozlardan Naimaxon Tolipova hamda maktab kutubxonachisi Dilnoza Botirjonovaning xizmatlari katta bo'ldi.

Muzaffar AHMEDOV



FESTIVAL G'OLIBI

Yurtimiz bo'ylab o'tkazilgan «Kamalak» yulduzlari bolalar ijodiyoti festivalida farg'onalik o'quvchilar o'z iste'dodlarini namoyish etdi.

Ular orasida Qo'shtepa tumanidagi 20-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shohsanam Omonova ham bor. Ijodkor qiz tanlovning viloyat bosqichida nazm yo'nalishida ishtirok etib, 1-o'rinni egalladi. Uning turli mavzularda yozgan she'rleri va matni ifodali o'qishi barchani ta'sirlantirdi. – Sinfdoshim Shohsanam maktabimizning eng namunali o'quvchilaridan hisoblanib, uning surati a'lochilar doskasidan o'rin olgan. Biz dugonamiz bilan faxrlanib, unga havas qilamiz, – deydi 8-sinf o'quvchisi Muxlisa Zokirjonova. O'tgan yili bu faol o'quvchi viloyat va tuman doirasida o'tkazilgan «Eng yosh kitobxon», «Eng ulug', eng aziz» ko'rik-tanlovlarda ham qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Unga kelgusida yangidan yangi zafarlar tilaymiz.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

ODOB DARSLARI


TO'G'RISO'ZNING QADRI BALAND

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy yolg'onchilikning achchiq qismati haqidagi bir hikoyatida shunday voqeani bayon etadi. Bir odam nuqul yolg'on aytib, odamlar orasida yolg'onchi degan nom orttiradi. Oqibat odamlar uning gap-so'zlariga ishonmay qo'yadilar. Bir kuni yolg'onchining uyiga o't tushadi. U dod solib, uyi yonayotganini aytib, odamlardan yordam berishlarini so'raydi. Uy yonib, kulga aylanadi... Yolg'onchilikning fojialariga oid bunday ibratli misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin ko'pchilik yolg'onchilar bundan xulosa chiqarmaydilar.

Afsuski, yolg'onchilar hamma davrdayam bo'ladi. Ularning faoliyatidan istalgancha misollar topiladi. Masalan, hayotimizga mobil telefonlar kirib keldi. Albatta, buning yaxshi va ibratli tomonlari ko'p. Lekin telefonning taloh, to'g'ri va insofli odamlar bilan birga, aldoqchi, yolg'onchilar ham foydalanadilar. Ayniqsa, telefon kasalligi maktab o'quvchilari orasida ham urchib ketdi... Aytaylik, ota-ona o'quvchi bolasiga telefon qilib qayerdaligini so'rasa, ayrim o'quvchilar uyalmay-netmay yolg'on aytadilar. O'z ota-onalari, bobo-buvilarini, ba'zan ustozlarini ham aldaydilar. Bundan kimga foyda? Yolg'onchilik xunuk oqibatlariga olib kelishini nahotki ular o'ylab ko'rmasalar. Aslida ota-onani aldash katta gunoh ekanligini ular bilarmikin?!

Yolg'on ham shirinlikka o'xshaydi. Shirinlikni bir tatib mazasini bilgan odam yana unga qo'l uzatganini sezmay qoladi. Yolg'onchi ham bir yolg'on aytganidan so'ng, yana davom etaveradi. Bir-ikki bor takrorlangan yolg'on asta-sekin odat tusini oladi. Sizga nega bu illat haqida gapirayotganimizning boisi shuki, bunday yomon odat ko'proq bolalikda paydo bo'ladi. Birov aybini bekitish uchun, birov ishini bitkazish uchun, yana birov esa qo'rquvdan yoki boshqa sabablar tufayli yolg'on-ga ruju qo'yadi.

Ba'zan biz kattalar ham bolalarni bilib-bilmay yolg'on va yolg'onchilikka o'rgatganimizni o'zimiz bilmay qolamiz. Ular kichiklik paytida turli narsalarni olib beringlar, deb xarxasha qiladilar. Shunda, albatta, olib beramiz, deb va'da qilamiz, bolalarni ishontiramiz. Lekin hamisha bergan so'zimizning ustidan chiqavermaymiz. Farzandimizda asta-sekin bunga ko'nikma hosil bo'ladi. Oldin ichida o'ylasa, asta-sekin yolg'on aytyapsiz, aldayapsiz, deb ochiq-oydin aytadigan bo'ladi. Ayrim bolalar ota-onam ham aldayapti-ku, deb yolg'on yo'lni tanlaydilar. Bu yomon! To'g'riso'z kishi oliyanob va samimiy bo'ladi. Mardlar ham ko'proq to'g'riso'z odamlardan chiqadi. Hayotda ham, oila va maktabda ham, jamoa o'rtasida ham to'g'riso'z kishining qadr-qimmatini baland hisoblanadi. Yolg'onchi esa bunday fazilatlardan mahrum bo'lgani uchun odamlarning nafatiga uchraydi.



Buyuk faylasuf Arastu aytgan ekan: «Rostlik yo'lida o'lish yolg'onchi bo'lib yashashdan afzal».

Yana aytishlaricha, «To'g'riso'z har narsadan yaxshi. Biroq, yolg'onchi va chaqimchidan eshitilgan har qanday to'g'riso'z ham yoqimsizdir. Chunki ularning aytgan to'g'ri so'zlari ham odamlar orasida yolg'on so'zlari kabi fisq-u fasod qo'zg'atadi». Yana bir hikmatda yolg'onchiga nisbat berib shunday deyishgan: «Egri daraxtning soyasi ham egri bo'ladi».

Agar odob, nasihat bayon etilgan kitoblardan ulug' allomalarning meroslarini o'qiganimizda ayon bo'ladiki, yolg'on va yolg'onchi sha'niga yaxshi gap aytilib, ular ibrat namunasi sifatida mulqato ko'rsatilmagan. Hamma zamon va davrda ham yolg'onchining tamg'asi yolg'onchi bo'lgan. Yolg'on so'z qay yo'sin yoki usulda aytilmasin, hech qachon qadr-qimmat topmagan, topmaydi ham. Yolg'onning yo'li – sarob, yolg'onchining umri – xarob...

Aziz bolajonlar! Odam hayotda o'z o'rmini rostgo'ylik, to'g'riso'zlik, halollik bilan topadi. Ushbu fazilatlilar bilan inson kamolga yetadi.

Yolg'onchining o'zi ham, so'zi ham yolg'onand iborat. Yolg'onchi suv yuzidagi ko'pikka o'xshab hayot oqimida yo'q bo'lib ketadi. Biz ham ko'pik bo'lishdan ehtiyot bo'laylik! Shunday emasmi?!

Ashurali JO'RAYEV

EVERYTHING IS IN YOUR HANDS (Barchasi o'z qo'lingdadir)



Once upon a time there lived a wise man. People from all over the neighborhood and even from other towns visited him to have an advice. And nobody left him being inconsolable. The glory about his wisdom spread all over the country.

An envious man heard about him one day and thought, «I'm going to laugh at him!»

He caught a butterfly, put it between his closed palms and went to the wise man. While, the envious man was going he was cheering in himself, «I'll ask him what kind of butterfly I have in my hands dead or alive? If he says «Alive» I'll clench my first. If he says «Dead» I'll let it out. He came to the wise man and told, «You can predict everything. Could you tell me what kind of butterfly I brought dead or alive?»

The wise man liked at him and said, «Everything is in your hands».

Translated by Muhammadjon SOLIJONOV

MOTHER'S DAY

There is given mix letters, your task is write suitable word.




Last Thursday was (was) unusual day for our family. It was International Women's Day. My threaf (...) and I decided to veqi (...) a present for my mother and for my sister. We tenw (...) to the market which is situated near our house. My sister likes chocolate that's

why, we bought some sweets for rthe (...). For my mother, we bought cake and flowers with congratulation cards. In the evening my father cooked delicious shosie (...) and salad also. I decorated our omeh (...) with flowers and balloons.



LOOK AT THE PICTURES AND MATCH THE WORDS

Pen, pencil, highlighter, whiteout, paper clip, push pin, file folder, envelop.



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Your teacher Ma'mura G'ULOMOVA

IDIOMS ABOUT «HAND»

Read the idioms and find the meaning.

	Idiom		Meaning
1	Get out of hand	A	To help someone
2	Have my hands full	B	To lose control
3	Give someone a hand	C	To try something for the first time
4	Have at hand	D	To stop being involved with
5	Try my hand at	E	To be very busy
6	Wash my hands of	F	To have available

1-b, 2-..., 3-..., 4-..., 5-..., 6...

LONDON

Is it true or false?

1. London is the capital of the United Kingdom – True
2. London is large but modern city –
3. Westminster Abbey Place is situated in New York –
4. London is divided by the rivers Thames and Seine –
5. The largest park is Hyde park in London –



6. Traditionally London is divided into the West End and the East End –
7. London plays the most important role in the word industry –
8. In London the real power belongs to the Parliament –
9. London is one of the large port in the world –

Dinora ABDULLAJONOVA

HOW MANY MISTAKES CAN YOU FIND?

The football match.

One day we spend the wonderful football match. In our team there are 8 pupils. There are: Abdurashid, Samandar, Mohlaroyim, Murodilla, Nuriddin, and Fotima. We divided our team into two parts, «Barsa» and «Real» Murodilla and Nuriddin are goal keepers. In «Real» team there are Abdurashid, Murodilla, Fotima and Madina. In «Barsa team» there are Samandar, Nuriddin, Munisa, Mohlaroyim. The play began. The ball kicked by Mohlaroyim. Suddenly, Abdurashid took the ball a way, and if he want it to hit the goal, Samandar appeared. He kicked the ball up. The ball to the gate. All peoples laughter and applauded. Then Munisa took the ball. Fotima and Madina took the ball from Munisa. Fotima ran to the gate. But Munisa kicked the ball to the left. Mehrihon took the ball and kicked it to the gate of the other team. But the ball did not enter the gate. Mehriniso's dog Droopy was running at the gate. The dog saw the ball and took it to play with his friends Snoopy. We all laughed we were sure of animals as good football players.



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

Mehrixon ORTIQOVA, the pupil of school under the Ministry of Public education

Kattada naql bor,
Yaxshida – aql.

Tong
yulduzi

O'QUVCHINING BURCHI

Biz tarix yaratmaymiz,
Tarix bizni yaratar.
Ona tili, adabiyot,
Ilmlarni o'rgatar.

Maktabda har kun emas,
Har daqiqa bebaho.
Yaxshi o'qib o'rgansak,
Bizlar bo'lamiz daho.

Darslarda faol bo'lish,
O'quvchining burchidir.
Aqlli, chaqqon bo'lsak,
Bu Vatanni kuchidir.

Muxina IBRAGIMOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l tumanidagi 8-umumta'lim
maktabining 10-sinf o'quvchisi

QALBIMIZNI TO'LDIRING NURGA

Qanotlarin yozib qaldirg'och,
Uchib keldi o'lkamiz tomon.
Navro'zoydan daraklar berib,
Bodom gullab ochildi qiyg'os.

Xursandchilik olib bag'ringga,
Quvonchlarni ulashding bizga.
Olam-olam sevinchlar ila,
Qalbimizni to'ldirgin nurga.

Xurshidbek XAYRULLAYEV,
Buxoro viloyati, Romitan
tumanidagi 1-umumta'lim
maktabining 1-«A» sinf o'quvchisi

GULLAR OCHILSIN QIYG'OS

Yana bahor keldi! Bahor boshqacha,
Boshqa fasllardan uning farqi bor.
Go'yo atlas kiyib olgan kelinchak,
Betakror noz ila chiroy unga yor.

Ko'klamning ilk kuni shaffof pardadan,
Go'yoki bahoroy mo'ralar asta.
Iliq nafas bilan qalbg'a she'r solar,
Xuddi tirilgandek bo'ldi Zulfiya.

Bahor, sen mehningni yaylovlarga sep,
Ko'karsin, ko'paysin barra maysalar.
Yuraging taftini ona yerga ber,
Barg yozsin sovuqda qotgan chechaklar.

Libosing rang-barang, oq, pushti, qizil,
Uzun sunbul soching qomatingga mos.
Shu alvon ranglardan ozgina olib,
Gulzorga sep, gullar ochilsin qiyg'os.

Bahor, tarovating dunyoga baxsh et,
Jonlansin tabiat sening sehringdan.
Insonlar qalbiga nur olib kirgin,
Chashmalar to'yinsin zilol mehringdan.

Barno RASULOVA,
poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi
54-umumta'lim maktabining 9-«G» sinf
o'quvchisi

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan
sonlarda)

Bir kuni singling ko'chadan yig'lab
kirdi-da, kimdir xafa qilganini aytib,
senga arz qildi. Bo'lmasa uyda uni
arzni eshitadigan men ham, onasi
ham bor edi. U seni – akasini tanladi.
Nima bo'lar ekan, deb qarab turdim.
Singlingni ko'z yoshlarini artib, tar-
tibga keltirib, qo'lidan ushlab, qozilik
qilgani chiqib ketding. Ko'chada
nima bo'lganini bilmayman-u, lekin
singlingni senga arz qilgani menga
judayam yoqdi. Shu holatning o'zi
menga ko'p narsalarni aytib berdi.
Demak, sen ko'chadami, mehmon-
dami, ishqilib qayerda bo'lsa ham
singlingga befarq emassan. Unga
mehribonsan. Gap-so'zlariga quloq
solasan. Erkaliklarini ko'tarasan. Qiz
bolalar o'zi shunaqa bo'ladi. Oilada
kim mehribonroq bo'lsa, o'shanga
arz-dodini aytadi. Xursandligim-
ning boisi, sen aka sifatida bunga
halitdan erishibsan. Bu meni ham,
adang, oyingni ham bag'oyat xursand
qiladi. Endi biz qaysidir ma'noda
singlingni senga to'la ishonamiz.

Kerak bo'lsa, himoya qiladigan,
zarur bo'lsa, tergaydigan akajonisi
bor-da, deymiz. Nima deding,
suyanchig'im?! Nafaqat senga
o'xshagan akalar, hatto ukalar
ham opalarning himoyachisi
bo'lishiga guvoh bo'lganman.
U paytda senga o'xshagan
bola edim.

O'sha kuni biz anhorda
cho'milardik. Bir opacha ukasini
boshlab kelib qoldi. Ukasi hali

Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist



SUYANCHIQ

suzishni bilmas ekan. Opachasi
boshidagi durrachasini olib, bir
uchuni ukasining bilagiga bog'lab,
ikkinchi uchini mahkam ushlab
qirg'oqda cho'miltira boshladi. Ukasi
juda xursand edi. Suvni chaplatib
qiyqirardi. Shu payt kattaroq bir
yigit kelib, qizning yoniga o'tirib,
unga tegajog'lik qila boshladi. Shu
payt ukasi opasiga, «Meni suvdan
chiqaring», dedi xuddi bir nima
chaqib olgandek baqirdi. Opasi uni
tortib oldi. Bola suvdan chiqdi-yu,

opachasiga tegajog'lik
qilgan yigitga shundoq
qilgan yigitga shundoq
kalla qo'ydi... Voh... Yigit anhorga
to'nkarilib tushdi.

Bolakayning opasini himoya qil-
ganini ko'rib, hammamiz qoyil qoldik.
Bo'lmasa bola qayda-yu, tegajog'lik
qilgan yigit qayda.

Ana shunaqa, bolam! O'g'il bolalar
opalari va singillarining himoyachisi
bo'lishi kerak. Chunki ular oilaning
sha'ni, g'ururi. Buni yodingda saqla,
bolam.

(Davomi bor)



NON

Yoziladi dasturxon,
Kelar darhol shirmoynon.
Buvijonim sindirib,
Bizlarni aylar mehmon.

Kulcha nonni tatib biz,
Ta'miga lol qolamiz.
Rahmat aytib buvinga,
Maktabga yo'l olamiz.

Dilnoza SAIDOVA,
Toshkent shahri, Bektemir
tumanidagi 289-umumta'lim
maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi



TINCHLIK RAMZI QALDIRG'OCH

Qoqib keldi qanotin,
Tinchlik ramzi qaldirg'och.
Osmonlardan chug'urlab,
Deyishmoqda «Eshik och».

Qaldirg'ochlar bizlarga,
Zo'r quvonch ulashadi.
Baxt qushidir qaldirg'och,
Tinchligimiz quchadi.

Uni hech kim haydamas,
Uy to'ridan joy berar.
Derlar tinchlik bor joyda,
Qaldirg'ochlar in qurar.

Dilnoza HAYDAROVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob shahridagi
1-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

N. SHAVKATOVA chizgan rasmlar



– Agar savolingizni bir bor eshitganimda, javob
berishga urunib ko'rgan bo'lar edim, olampanoh.

Shunda Akbar: – Shahrimizdagi qarg'alar soni qan-
cha? – deya savolini takrorladi.

Birbal savolni tinglagach, bir zum ham o'tmay:
–Shahrimizda ellik ming besh yuz sakson to'qqizta
qarg'a bor, – deb javob qaytardi.

– Nega bu qadar ishonch bilan javob berayapsan? –
so'radi shoh ajablanib.

– Shubhalansangiz, mulozimlarni yuborib, qarg'alarni
hisoblatib ko'ring, olampanoh, – dedi vazir.

– Agar men aytgandan ko'proq qarg'a uchrasa, demak,
qarg'alarni yo'qlab qarindoshlari kelgan bo'ladi. Yoki bo'lmasa,
kamroq qarg'a chiqsa, demak, bizning qarg'alar yaqinlarini
ko'rish uchun safarga otlangan bo'ladi, olampanoh, – deya
so'zini yakunladi topqir vazir.

Vazirning bunday o'tkir fahm-farosati shoh Akbar
juda ham xursand qildi.

Ingliz tilidan
Muhammadsharif FAYZULLAYEV tarjimasi

O'ZBEK YOSHLARINING YANA BIR G'ALABASI

Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyevning o'tgan yilning 9-martidagi O'zbekiston sportchilarini 2020-yil Tokio shahrida bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorlashga oid Qaroriga muvofiq O'zbekiston qilichbozlik federatsiyasi joylarda yoshlarning ushbu sport turi bilan shug'ullanishi uchun shart-sharoit yaratish, sportchi va murabbiylarning mahoratini oshirish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Endilikda respublikamizda ikki mingga yaqin sportchi qilichbozlik bilan muntazam shug'ullanmoqda.

kollejlari va sport maktablarida xalqaro musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'rish va munosib ishtirok etishi uchun qulay imkoniyatlarga ega qilichbozlik bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Joriy yilning 22-fevral – 5-mart kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida qilichbozlik bo'yicha kadetlar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatida hamyurtlarimizning erishgan g'alabasi qalbimizni quvonchga to'lqindirdi.

Chempionatda kadetlarimiz sablya yo'nalishida kumush va bronza medalini qo'lga kiritishdi. Musobaqaning sablya yo'nalishidagi jamoaviy bahslarda sportchilarimiz chorak finalda lordaniya terma jamoasini 45:23, yarim finalda quvaytlik tengdoshlarini 45:44 hisobida mag'lub etib, kumush medalga sazovor bo'ldi.

Qizlar o'rtasidagi sablya yo'nalishida chorak finalda Yaponiya terma jamoasini 45:43 hisobida mag'lubiyatga uchratgan sportchi qizlarimiz chempionatning bronza medali bilan taqdirlandi.

Qit'a chempionatida yuqori natijalarga erishgan sportchilarimiz va ularning murabbiylariga qilichbozlik federatsiyasi tomonidan yengil avtomobillar

topshirildi.

Musobaqada terma jamoamiz tarkibida yurtimizni sharafini himoya qilgan Chirchiq olimpiya zaxiralari kolleji tarbiyalanuvchisi Jaloliddin Dushamboev, Qoraqalpog'iston Respublikasi agro va suv xo'jaligi kolleji o'quvchisi Sherzod Mamutov, Qoraqalpog'iston Respublikasi 2-ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi Pazil Genjebayev, Toshkent shahridagi 34-umumta'lim maktabi o'quvchisi Bobir Rasulov hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus olimpiya zaxiralari kolleji o'quvchisi Zaynab Dayibekova, Toshkent shahri rassomchilik kolleji o'quvchisi Sevinch Ismoilova, Toshkent shahri 300-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shahnoza Tog'aymurodova, Chirchiq olimpiya zaxiralari kolleji o'quvchisi Sevil Xudoyberganovlar xalqimizning munosib farzandlari ekanligini isbotlashdi.

Nurbek QIDIRALIYEV



Qoraqalpog'iston Respublikasi va bir nechta viloyatlarimizda hududiy federatsiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Olimpiya zaxiralari

ularning murabbiylariga qilichbozlik federatsiyasi tomonidan yengil avtomobillar



ARNASOYDA CHEMPIONLAR KO'PAYMOQDA

Qirg'izistonda sportining ushu-sando turi bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Unda o'zbekistonlik sportchilar Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Checheniston, turkmanistonlik atletlar bilan g'oliblik uchun o'zaro bellashdilar.



Turnirda ustoz Dil-murod Tursunovning mashg'ulotlarini muntazam qoldirmay, ko'nikma va sir-asrorlarini mukammal egallab kelayotgan amasoylik Og'abek Jiyanbekov ham ishtirok etdi. 35 kg vaznida kurash olib borgan Og'abek qozog'istonlik va tojikistonlik raqiblaridan ustun kelib, yakunda sovrindor bo'ldi. Shuningdek, yana 4 nafar sportchilarimiz musobaqada 1-, 2- va 3-o'rinlarni egallab, yurtimiz sharafini munosib himoya qilishdi.

Joriy yil 2-4-mart kunlari ushu-sando bo'yicha Jizzax shahrida bo'lib o'tadigan xalqaro turnirda ham munosib ishtirok etishni tilaymiz.

Hozirda ushbu sportchimiz Jizzax shahridagi harbiylashtirilgan maktabning 6-sinfida tahsil olmoqda.

Shohruh MUSAYEV

Toshkent viloyati, Angren shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43 ta umumta'lim maktablari bo'lib, ushbu ta'lim muassasalarida 29 855 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Bugungi kunda umumiy o'quvchilardan 10 300 nafarini muntazam sport bilan shug'ullanuvchi o'g'il-qizlar tashkil etadi.

G'OLIBLAR VILOYATDA BELLASHADI

Joriy o'quv yilidagi «Umid nihollari» sport musobaqalarining maktab bosqichida 19 589 o'quvchi ishtirok etib, shundan 4 421 nafari shahar bosqichida qatnashdi. 202 nafar o'quvchilar sportning 20 turidan viloyat bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Natijalarga ko'ra, 13-umumta'lim maktabi o'g'il bolalar jamoasi basketbol bo'yicha o'smirlar orasida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Basketbol bo'yicha 22-umumta'lim maktabi qizlar jamoasi, voleybol bo'yicha o'smirlar o'rtasida 17-umumta'lim maktabi, qizlar o'rtasida 39-umumta'lim maktabi jamoasi birinchilardan bo'lishdi. Stol tennis bo'yicha 21-umumta'lim maktabi, 3-umumta'lim maktabi shaxmat bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritib, musobaqaning viloyat bosqichida



qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Sportning 21 turi bo'yicha o'tkazilishi kutilayotgan «Umid nihollari – 2018» musobaqasi viloyat bosqichida Angren shahar terma jamoalaridan 202 nafar o'quvchi ishtirok etadi. Basketbol sport turining hudud bosqichi joriy yilning 23-mart kuni Angren shahrida o'tkaziladi, bunda 7 ta tuman va shahar ishtirok etdi.

Muhammadsodiq ALIMOV

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Sport turi	1								Kim-yoviy modda																											
Vi-loyat		Manzarali o'simlik	Berilgan, shaydo	2	Inoq, totuv	Bosma matn o'lchovi		Aravalar qatnovi to'dasi	3	Hayot, yashash		Italiya poytaxti		...g'or, ay...																						
			Qozog'istondagi daryo		Venger kompozitori								Bosimni o'lchash asbobi	4																						
	Bo'yoq moyi	Rangli metall		5	Mavjud			Asaka avtomarkasi		Oila, hovli joy																										
6				Xazina		7			Porloq ke-lajak	8			Zararkunanda hasharot		G'o'r																					
	Kuchli bo'ron					Abdulla Oripov she'ri	9					Lotin alifbosi harfi	Par-randa																							
		10	Aqiq ma'dani turi	Ip gaz-lama				Qo'ylar podasi		... Ra-himov (aktyor)		Dehqon-ning ish qurolli		11																						
	Tosh-kentda-gi sta-dion				Tabobat ramzi, jonivor	Olov, otash	Yoqil-g'i gaz		12			...tan, chor...		Gazni yuborish asbobi																						
		13		Fut-bol jamoa						Duk-kakil don				Vaqt, zamon																						
Ameri-kadagi tog'lik	Meros egasi		14			So'z tur-kumi				Shax-mat donasi		15																								
16			Adolat, to'g'ri-lik	Jihoz-langan idora	17	Puffla-ma soz	Meh-nat haqi	18					Tut, uzum murab-bosi		...dandon (shirin-lik)																					
Hikmat	12	4	1	*	17	16	8	18	14	*	11	14	18	14	*	17	16	8	18	14	*	8	3	6	7	*	13	9	2	14	15	14	5	3	10	.

Tuzuvchi: F. ORIPOV

HAYOTGA QAYTDI



Maktab darvozasidan chiqqan bolalar navnihol o'rik daraxtining novdasi sinib yotganini ko'rib, uning qarshisida to'xtab qolishdi.

– Essizgina, – dedi qizaloq astoydil o'ksinib.

– Qaysi rahmsiz qildi ekan bu ishni?! – gapga qo'shildi qora kostyum-shimli bolakay. – Kimligini bilganimda, uni yaxshilab ta'zirini berardim.

– Unga yordam berishimiz kerak! – dedi boshqa bir qiz achinib. – Daraxtning ham joni bo'ladi, deyishadi. Rosa azob chekkandir?!

– To'g'ri aytasan. Lekin unga taxtacha qo'shib, bog'lab qo'yamiz. Shunda novda yana tutib ketsa, ajab emas.

Bolalar daraxt shoxlarini to'g'rilab, avaylab bog'lashdi va chelakda suv olib quyishdi. Oradan oylar o'tdi. Hademay o'z sepini yozib bahor kirib keldi. Chor-atrof gullab-yashnadi, yam-yashil tusga kirdi. Maktab oldidagi o'rik daraxtining singan shoxlari ham barg yozdi. Nihol hayotga qaytgan edi. Bolalar bundan juda xursand bo'idilar.

Murod TILLAYEV

Pazanda qizga!



MAZALI BALIQ

Aziz qizlarjon! Baliq inson organizmiga juda foydali ekanligini yaxshi bilasiz. Bugun sizlarga undan taom tayyorlashni tavsiya qilamiz.

Kerakli masalliq: 2 dona baliq, 1,5–2 oshqoshiq yog', tuz, murch va ta'bga ko'ra ziravorlar, pomidor qaylasi.

Tayyorlanishi: tovadagi yog'ga baliq solinib, past olovda ikkala tarafi qizartirib olinadi. 15 daqiqadan so'ng baliqqa tuz, murch sepilib, pishirishda davom etiladi. 25 daqiqadan so'ng baliq ustiga pomidor qaylasi quyilib dasturxonga tortiladi.

Yoqimli ishtaha!

FOYDALIQ MASLAXATLAR

1. Xom sabzavotlarni plastmassa taxtakachda to'g'rang. Yog'ochli taxtakach sabzavotlarning suvini shimib oladi. Uning o'tkir hidi boshqa mahsulotlarga ham o'tishi mumkin.

2. Xom sabzavotli salatlarini dasturxonga tortishdan salgina avval tayyorlang. Shunda ularning foydali xususiyatlari yo'qolmaydi.

3. Qaynatilgan sabzavotlarni sovugandan so'ng to'g'rang. Chunki issiq sabzavot bilan aralashgan boshqa mahsulotlar salatning mazasini buzishi mumkin.

4. Tayyor salatlarini uzoq saqlanishini istasangiz, shisha yoki emallangan idishlardan foydalaning.

5. Pishgan sabzavotlarni aslo sovuq suvda sovuta ko'rmang. Ular po'stidan ajralmay qoladi. Bu salatning mazasiga ham ta'sir qiladi.

Nargiza ABDULLAYEVA



8

12-mart 2018

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher S'ADULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Jamoliddin ABDULLAYEV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etiladi.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 74575
Buyurtma – V 1243

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08